

Belorussiya

www.gosstandart.gov.by

sayt materiallari bo'yicha

Belarus Respublikasining Davlat standartlashtirish qo'mitasi (Davstandart) texnik me'yorlash, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, energiyasamaradorlik sohasida yagona davlat siyosatini o'tkazish bo'yicha, me'yor va standartlarga mosligini tekshirish, shuningdek yoqilg'i, elektr va issiqlik energiyasdan oqilona foydalanishni nazorat qilishni amalga oshirish bo'yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Gosstandart sanoat va biznesga boshqa mamlakatlarning davlat, xalqaro, regional va milliy standartlariga kirishini, jumladan internet-tehnologiyalar asosida ta'minlagan holda, Texnik me'yoriy huquqiy hujjatlar milliy fondi yuritilishini amalga oshiradi.

Gosstandart tomonidan akkreditastiya faoliyatining natijalarini xalqaro tan olinishini ta'minlash maqsadida milliy akkreditastiya tiziminini xalqaro talablar va umum qabul qilingan dunyo amaliyoti bilan yanada uyg'unlashtirish bo'yicha tadbirlar majmui ham amalga oshiriladi.

Gosstandart standartlashtirish, metrologiya, akkreditastiya sohasida etakchi xalqaro va evropa tashkilotlarining (ISO, IEC, OIML, UNECE, CEN, CENELEC, ILAC va boshq.) ishida ishtirok etadi, sobiq sovet ittifoqi hududi – Bojxona birligi, EvrAzES va MDH da integrastion tuzilishlar doirasida texnik tartibga solish sohasidagi ishlarni o'tkazishda faol pozistiyalarga ega.

Ikki tomonlama ishga oid aloqalar 20 dan ortiq mamlakatlar bilan 30 dan ortiq xalqaro shartnomalarni amalga oshirish doirasida rivojlanmoqda.

BELARUS RESPUBLIKASI MUVOFIQLIKNI TASDIQLASH MILLIY TIZIMINING TUZILISHI

Muvofiqlikni majburiy tasdiqlash quyidagi shakkarda o'tkaziladi:

- [**majburiy sertifikatlashtirish**](#)
- [**muvofiqlikni deklarastiya qilish**](#)

Muvofiqlikni majburiy tasdiqlash, agar bu texnik reglamentlar bilan yoki Belarus Respublikasida muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulot, ishlar, xizmatlar va boshqa muvofiqligini baholash ob'ektlarining ro'yxati (keyinchalik – ro'yxat)da belgilangan bo'lsa amalga oshiriladi. Bunday tartib 2016 yil 1

yanvargacha amal qiladi. Shu sanadan boshlab, muvofiqlikni baholash qonunida belgilanganidek, faqat ularga nisbatan texnik reglament talablari belgilangan muvofiqligini baholash ob'ektlari muvofiqligini majburiy tasdiqlanishdan o'tkaziladi. Ro'yxatda quyidagilar o'rnatiladi:

- muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulot, ishlar, xizmat turlari va boshqa muvofiqligini baholash ob'ektlari;
- ularning muvofiqligiga muvofiqligini majburiy tasdiqlash o'tkaziladigan texnik me'yorlash va standartlashtirish sohasidagi texnik me'yoriy huquqiy hujjatlar;
- muvofiqligini majburiy tasdiqlash shakllari.

Ushbu ro'yxatini shakllantirishda quyidagilar kriteriy hisoblanadi:

- mahsulot, ishlar, xizmat turlari va boshqa muvofiqligini baholash ob'ektlari ishlashining inson hayoti, sog'ligi va irsiyati, mulki hamda atrof muhit uchun potentzial xavfi;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar) iste'molchilarini uning mo'ljallangan maqsadi, sifati va xavfsizligiga nisbatan adashtirish fikrga olib keladigan harakatlarning oldini olish.

Belarus Respublikasida muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulot, ishlar, xizmatlar va boshqa muvofiqligini baholash ob'ektlarining ro'yxati



[Belarus Respublikasida muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulot, ishlar, xizmatlar va boshqa muvofiqligini baholash ob'ektlarining ro'yxati \(Belarus Respublikasi Davlat standartlashtirish qo'mitasining 2011 yil 14 iyuldagagi 46-sonli «Belarus Respublikasi Davlat standartlashtirish qo'mitasining 2008 yil 16 dekabrdagi 60-sonli qaroriga o'zgarish va to'ldirish kiritish to'g'risida»gi qarori\)](#)

Belarus Respublikasiga muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotni olib kirish shartlari

Belarus Respublikasiga muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotni etkazib berishga tuziladigan shartnomalarda etkazib berilayotgan mahsulotning muvofiqligini majburiy tasdiqlash o'tkazilishi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Belarus Respublikasining bojxona hududiga muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotni olib kirish uchun bojxona organlariga bojxona deklarasiyasi bilan birga Belarus Respublikasida akkreditlangan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati yoki Belarus Respublikasida akkreditlangan sertifikatlashtirish organi tomonidan ro'yxatga olingan, ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan qabul qilingan muvofiqlik to'g'risidagi deklarastiya taqdim etiladi.

Olib kelinadigan tovar to'plariga, ularni sertifikatlashtirish muddatlari, sinov muddatlarini qo'shgan holda, tovarlarni bojxonaga oid rasmiylashtirishning o'rnatilgan me'yoriy muddatlaridan oshgan hollarda, mahsulotning o'rnatilgan talablarga mosligi to'g'risidagi importer arizasi (deklarasiyasi) asosida, sertifikatlashtirish organi tomonidan olib kirilayotgan mahsulot to'pining identifikasiyasi hamda keyinchalik sotishdan oldin bojxonaga oid rasmiylashtirishdan so'ng o'rnatilgan tartibda uni sertifikatlashtirish bilan sertifikatlashtirish organalari tomonidan cheklangan muddatga berilishi mumkin.

Belarus Respublikasining bojxona hududiga muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotni olib kirish tartibi Belarus Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Belarus Respublikasi Davlat standartlashtirish qo'mitasi tomonidan o'rnatiladi.

[Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining 2007y. 30 iyundagi 861-sonli qarori](#)

Belarus Respublikasida muvofiqligini baholash to'g'risidagi hujjatsiz muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotni sotish, xizmat ko'rsatish, xodimlar faoliyati va boshqa muvofiqligini baholash ob'ektlarining ishlashi taqiqlanadi.

Mahsulot xavfsizligi

Inson hayoti, sog'ligi, mulki, shuningdek atrof muhit himoyasini ta'minlash Davstandart faoliyatining quyidagi sohalardagi asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi:

- [Texnik me'yorlash](#)
- [Standartlashtirish](#)
- [Muvofiqlikni baholash](#)

Texnik me'yorlash

«Texnik me'yorlash va standartlashtirish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mahsulot, uni ishlab chiqish jarayonlari, ishlab chiqarish, foydalanish (ishlatish), saqlash, tashish, sotish va utilizastiya qilish yoki xizmat ko'rsatish xavfsizligi bilan bog'liq texnik talablar texnik reglamentlarda o'rnatiladi. Bunday hujjatlar Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilinib, ularga tegishli maqom beriladi. Texnik reglament talablariga rioya qilish majburiy.

Belarus Respublikasining qabul qilingan texnik reglamentlari to'g'risida axborot

Texnik reglament loyiҳalarining ishlab chiqilishi to'g'risida axborot

Standartlashtirish

Bugungi kunda Belarus Respublikasida 23 mingdan ortiq davlat standartlari amal qilib, ulardan taxminan 90% – xavfsizlikni ta'minlaydigan standartlar.

2011 yilda qabul qilinganlar qatorida qishloq xo'jalik mashinalari, qurilish materiallari va buyumlari, maishiy elektr asboblar, yoqilg'i va neftmahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa standartlar.

Oziq-ovqat mahsulotlariga kelganda, bu sohada milliy standartlashtirish «yashil» mahsulotlarni iste'mol qilish umumjahon g'oyalarini hisobga olgan holda rivojlanmoqda. Savdo rastalarida belorus **«Tabiiy mahsulot» belgisiga ega mahsulotlari** paydo bo'lgan www.bio.gosstandart.gov.by/

Xavfsizlikning turli aspektlariga tegishli bo'lgan, jumladan mahsulot, uni ishlab chiqarish jarayonlari, transportda tashish, foydalanish, qo'llash, utilizastiya qilish xavfsizligi ta'minlanishini tartibqa soladigan texnik me'yorlash va standartlashtirish sohasidagi 2011 yilda amalda joriy qilingan yangi TNPA (TR, TKP, STB, GOST) (ilk bor kiritilmoqda)

Muvofiqlikni baholash

Belarus Respublikasida bozorni sifati yomon va xavfsiz bo'lмаган mahsulotdan himoyalash, chiqarilayotgan mahsulot (xizmatlar)ning sifati va raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashishning samarali instrumenti muvofiqlikni baholash hisoblanadi

Ob'ektlarning texnik me'yorlash va standartlashtirish sohasida texnik me'yoriy huquqiy hujjat talablariga muvofiqligini baholashning qabul qilingan tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- akkreditasiyani
- muvofiqlikni tasdiqlashni

Muvofiqlikni tasdiqlash majburiy yoki ixtiyoriy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

TNPA talablariga muvofiqlikni majburiy tasdiqlash inson hayoti, sog'ligi va irsiyati, mulki hamda atrof muhit xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Bu jarayondan «Belarus Respublikasida muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulot, xizmatlar, xodimlar va boshqa muvofiqligini baholash

[ob'ektlarining ro'yxati»](#) ga kiritilgan muvofiqligini baholash ob'ektlari o'tkazilishi lozim.

Respublikada uni mukammallashtirish, mahsulot yoki xizmat iste'molchiga keltirishi mumkin bo'lgan potensial xavf darajasini hisobga olgan holda o'zgarish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha ishlar muntazam olib boriladi.

Xalqaro standartlarga muvofiq boshqaruv tizimlarini sertifikatlashtirish chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat xavfsizligi va sifatini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Belarus Respublikasida import qilinadigan mahsulotga qo'yiladigan majburiy talablar haqida axborot

Umumiy holda Belarus Respublikasining 2004 y. 5 yanvardagi 269-Z-sonli "Texnik jihatdan normalash va standartlashtirish sohasida texnik normativ huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonuni va Belarus Respublikasi Prezidentining 2016 y. 20 iyuldagagi 278-sonli "Muvofiqlikni majburiy tasdiqlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Belarus Respublikasida quyidagi muvofiqlikni baholash ob'ektlarining muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi (muvofiqlikni sertifikatlashtirish, deklaratsiya qilish) lozim:

- ularga nisbatan texnik reglamentlar talablari o'rnatilgan (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi – Bojaxona ittifoqining texnik reglamenti doirasida (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki); Belarus Respublikasi qonunchiligi – Belarus Respublikasi texnik reglamentlari doirasida),
- Belarus Respublikasi muvofiqlikni tasdiqlash milliy tizimining Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining 2016 y. 21 oktyabrdagi 849-sonli qarori bilan tasdiqlangan Muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi kerak bo'lgan ob'ektlar ro'yxtiga (keyinchalik matnda – Ro'yxat) kiritilgan.

Sohaning nomi	Sohaning nomi Qo'yiladigan talablar (TR, standartlar, protseduralar, sertifikatlashtirish qoidalari)
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	
Yangi uzelgan va quritilgan mevalar, yangi uzelgan va konservatsiyalangan sabzavotlar, yangi uzelgan yoki quritilgan uzum; meva va sabzavot mahsulotlari (shu jumladan quritilgan), yangi uzelgan qovunlar,	Bojaxona ittifoqining quyidagi texnik reglamentlarining texnik jihatdan tartibga solish ob'ektlari hisoblanadi: <ul style="list-style-type: none">- BI TR 021/2011 «Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»;- BI TR 022/2011 «Oziq-ovqat mahsulotlari ularni markalash qismida»;- BI TR 023/2011 «Meva va sabzavotlardan tayyorlanadigan sharbat mahsulotlarining texnik reglamenti»;- BI TR 027/2012 «Ixtisoslashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining alohida turlari, shu jumladan parhez

tarvuzlar va papaya, yong'oqlar	<p>davolash va parhez profilaktika ovqatlanish xavfsizligi to'g'risida»;</p> <ul style="list-style-type: none"> - BI TR 029/2012 «Oziq-ovqat qo'shimchalari, aromatizatorlar va texnologik yordamchi vositalarning xavfsizlik talablari». <p>Bojxona ittifoqining ushbu texnik reglamentlarida mahsulotning aniq nomlariga, ularning belgilangan maqsadi va tarkibiga bog'liq holda, qo'yilishi mumkin bo'lgan majburiy talablar o'rnatilgan, shuningdek muvofiqlikni baholash shakllari va protseduralari o'rnatilgan.</p> <p>«Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida» BI TR 021/2011ga muvofiq (gorizontal) quyidagi muvofiqlikni baholash shakllari ko'zda tutilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - oziq-ovqat mahsulotining muvofiqligini deklaratsiya qilish; - ixtisoslashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish; - yangi turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish; - veterinariya-sanitariya ekspertizasi. <p>Yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish masalalari Belarus Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi vakolatida ekanligiga, yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlar veterinariya-sanitariya ekspertizasi masalalari Belarus Respublikasi Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat vazirligi vakolatida ekanligiga e'tibor qaratamiz.</p>
Qovurilmagan yer yong'oq	<p>BI TR 021/2011 «Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanadi.</p> <p>BI TR 015/2011 «Don xavfsizligi to'g'risida» yer yong'oqqa taalluqli.</p> <p>Texnik reglament oziq-ovqat va ozuqa maqsadlari uchun ishlataladigan donga taalluqli, bunda urug'lik maqsadlari uchun mo'ljallangan don, donni qayta ishlash mahsulotlariga taalluqli emas.</p> <p>Texnik reglament don uchun qo'llanishi va bajarilishi majburiy bo'lgan talablarni belgilaydi, shuningdek muvofiqlikni baholash shakllari va protseduralari o'rnatilgan.</p> <p>BI TR 015/2011da don uchun muvofiqlikni baholash shakli belgilangan - muvofiqlikni deklaratsiya qilish, BI TR021/2011da ham muvofiqlikni deklaratsiya qilish</p>
To'qimachilik buyumlari	
Paxtadan tayyorlangan ip, paxmoq sochiqbop gazlama	Tarkibida massasi bo'yicha 85% va undan ortiq paxta bo'lgan chakana savdo uchun qadoqlanmagan ip, shu jumladan paxtadan tayyorlangan ip, Belarus Respublikasi

<p>Trikotaj buyumlar: trikotaj sport, chang'i va cho'milish kostyumlari, kostyumlari, pidjaklar, shimplar, kalsonlar, trusilar, tungi ko'ylaklar, pijamalar, cho'milish xalatlari, trikotaj uy xalatlari</p>	<p>Bojxona ittifoqining (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanmaydi, shuningdek Ro'yxatga kiritilmagan.</p>
<p>Tarkibida massasi bo'yicha 85% va undan ortiq paxta bo'lgan chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan tayyorlangan ip. Tarkibida 85 mas.% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, yuza zichligi 200 g/m² ortiq bo'limgan ip gazlama.</p>	<p>Yengil sanoat mahsulotlari Bojxona ittifoqining quyidagi texnik reglamentlari ta'siriga tushadi BI TR 007/2011 «Bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida» yoki BI TR 017/2011 «Yengil sanoat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida». Ushbu texnik reglamentlar bilan ko'rsatilgan mahsulotga bo'lgan talablar va muvofiqlikni baholash protsedralari o'rnatilgan. BI TR 007/2011da quyidagi muvofiqlikni baholash shakllari o'rnatilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - keyingi muvofiqlikni deklaratsiya qilish bilan davlat ro'yxatidan o'tkazish, - muvofiqlikni deklaratsiya qilish, - sertifikatlashtirish. <p>Yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish masalalari Belarus Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi vakolatida ekanligiga e'tibor qaratamiz. BI TR 017/2011da quyidagi muvofiqlikni baholash shakllari o'rnatilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - muvofiqlikni deklaratsiya qilish, - sertifikatlashtirish. <p>Quyida sanab o'tilgan mahsulotlar muvofiqligi majburiy baholanishi kerak:</p> <p>kattalar uchun tikuv va trikotaj buyumlari (birinchi qatlam) (shu jumladan, kalsonlar, trusilar, tungi ko'ylaklar, pijamalar, cho'milish buyumlari ("cho'milish" xalatlari), tungi xalatlar) sertifikatlashtirish shaklida (BI TR 017/2011talablariga muvofiqligiga); kattalar uchun tikuv va trikotaj buyumlari (ikkinchi yoki uchinchi qatlam) (shu jumladan, xalatlar, sport kostyumlari (masalan, shim, kurtka), pidjaklar, shimplar) muvofiqlikni deklaratsiya qilish shaklida (BI TR 017/2011talablariga muvofiqligiga); bolalar va o'smirlar uchun tikuv va trikotaj buyumlari (ikkinchi qatlam) (shu jumladan, xalatlar, sport kostyumlari (masalan, shim, kurtka), pidjaklar, shimplar) sertifikatlashtirish shaklida (BI TR 007/2011talablariga muvofiqligiga); 1 yoshgacha bolalar uchun tikuv va trikotaj buyumlari (uchinchi qatlam) (shu jumladan, sport kostyumlari (masalan, shim, kurtka), pidjaklar, shimplar) sertifikatlashtirish shaklida (BI TR 007/2011talablariga muvofiqligiga); 1 yoshdan katta bolalar va o'smirlar uchun tikuv va trikotaj</p>

	<p>buyumlari (uchinchi qatlam) (shu jumladan, sport kostyumlari (masalan, shim, kurtka), pidjaklar, shimplar) muvofiqlikni deklaratsiya qilish shaklida (BI TR 007/2011talablariga muvofiqligiga);</p> <p>3 yoshgacha bolalar uchun cho'milish buyumlari va ich kiyim buyumlari (shu jumladan, trusilar, tungi ko'ylaklar, pijamalar, cho'milish buyumlari ("cho'milish" xalatlari), tungi xalatlari) keyingi muvofiqlikni deklaratsiya qilish bilan davlat ro'yxatidan o'tkazish shaklida (BI TR 007/2011talablariga muvofiqligiga);</p> <p>3 yoshdan katta bolalar va o'smirlar uchun cho'milish buyumlari va ich kiyim buyumlari (shu jumladan, trusilar, tungi ko'ylaklar, pijamalar, cho'milish buyumlari ("cho'milish" xalatlari), tungi xalatlari) sertifikatlashtirish shaklida (BI TR 007/2011talablariga muvofiqligiga).</p>
Xo'jalik-maishiy maqsaddagi va uy-ro'zg'or buyumlari	
O'zga tolali o'simlik materiallardan tayyorlangan qog'oz massasi	Belarus Respublikasi va Bojxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanmaydi, shuningdek Ro'yxatga kiritilmagan.
Kimyoviy mahsulot	
Vermikulit konsentrati	Belarus Respublikasi va Bojxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining talablariga texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanmaydi, shuningdek Ro'yxatga kiritilmagan.
Neft va gaz sohasi	
Neft vazelinini, parafin, neft mumi va aynan o'xhash mahsulotlar	Belarus Respublikasi va Bojxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining talablariga texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanmaydi, shuningdek Ro'yxatga kiritilmagan.
Mashinasozlik tarmog'ining buyumlari	
Asosan odamlarni tashish uchun mo'ljallangan (8702 tovar pozitsiyasidagi motorli transport vositalaridan tashqari), yengil avtomobillar va boshqa motorli transport vositalari, jumladan yuk-yo'lovchi transporti	<p>BI TR 018/2011 «G'ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to'g'risida»gi texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanadi.</p> <p>Texnik reglament quyidagilarni belgilaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - texnik jihatdan tartibga solish ob'ektlari; - texnik jihatdan tartibga solish ob'ektlariga bo'lgan xavfsizlik talablari; - muvofiqlikni baholash shakllari va protseduralari, texnik jihatdan tartibga solish ob'ektlarining ushbu texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlash sxemalari. <p>Texnik reglament ta'siri tarqaladigan texnik jihatdan tartibga solish ob'ektlariga quyidagilar kiradi:</p> <p>umumiy foydalanish avtomobil yo'llarida ekspluatatsiya qilinish uchun mo'ljallangan L, M, N va O toifalaridagi g'ildirakli transport vositalari (keyinchalik matnda - transport vositalari) shuningdek shassilar;</p> <p>transport vositalarining ularning xavfsizligiga ta'sir</p>

ko'rsatuvchi komponentlari.

Texnik reglament ta'siri quyidagi transport vositalariga taalluqli emas:

- 1) konstruksiyasi bilan ko'zda tutilgan 25 km/s dan ko'p bo'limgan maksimal tezlikka ega;
- 2) faqat sport musobaqalarida qatnashish uchun mo'ljallangan;
- 3) chiqarilgan sanasidan 30 yil va undan ortiq vaqt o'tgan L va M1 toifalaridagi, shuningdek, chiqarilgan sanasidan 50 yil va undan ortiq vaqt o'tgan, original dvigatel, kuzov va mavjud bo'lganda – ramali, saqlangan yoki original holatgacha restavratsiya qilingan yo'lovchilarni va yuklarni tijoratga oid tashish uchun mo'ljallanmagan M2, M3 va N toifalaridagi;
- 4) Bojaxona ittifoqining yagona bojaxona hududiga 6 oydan ko'p bo'limgan muddatga olib kiriladigan va, uzoqlashtirish imkonini ko'zda tutmaydigan bojaxona rejimlari ostiga joylashtiriladigan;
- 5) Bojaxona ittifoqining yagona bojaxona hududiga xorijda yashaydigan shaxslarning ixtiyoriy ko'chishiga ko'maklashish bo'yicha milliy davlat dasturlarining ishtirokchilari hisoblangan, yoxud o'rnatilgan tartibda qochoq yoki majburiy ko'chib kelgan shaxs deb e'tirof etilgan jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy mulk sifatida olib kiriladigan;
- 6) umumiy qabul qilingan xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq imtiyoz va immunitetlardan foydalanadigan diplomatik va konsullik vakolatxonalariga, xalqaro (davlatlararo) tashkilotlarga, shuningdek shu vakolatxonalar (tashkilotlar)ning xodimlariga va ularning oila a'zolariga tegishli;
- 7) yo'l bo'limgan joylarda harakatlanuvchi, katta yuklar uchun mo'ljallangan transport vositalari.

Bunda ushbu texnik reglament ta'siri faqat 1), 2), 4) va 5) bandlarda sanab o'tilgan transport vositalarini butlash uchun mo'ljallangan komponentlarga taalluqli emas.

BI TR 0178/2011 «G'ildirakli tarsport vositalarining xavfsizligi to'g'risida» texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblangan mahsulotga nisbatan quyidagi muvofiqlikni baholash shakllari ko'zda tutilgan:

- transport vositasi (shassi) turini ma'qullash;
- yagona transport vositasining konstruksiyasini sinovdan o'tkazishni texnik ekspertiza qilish, va o'lchash;
- foydalanishda bo'lgan transport vositasini texnik ko'rikdan o'tkazish;
- transport vositasining konstruksiyasiga o'zgarishlar kiritilgan holda, foydalanishda bo'lgan transport vositasini dastlab texnik ekspertiza qilish va texnik ko'rikdan

	<p>o'tkazish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - transport vositalari komponentlarining turlarini sertifikatlashtirish; - transport vositalari komponentlarining turlari muvofiqligini deklaratsiya qilish. <p>Transport vositalarini sinovdan o'tkazish va o'chashni texnik ekspertiza qilish va texnik ko'rikdan o'tkazish masalalari Belarus Respublikasi Transport va kommunikatsiya vazirligi vakolatida ekanligiga e'tibor qaratamiz.</p>
Tibbiyot buyumlari	
Paxta, paxta-prima	<p>Belarus Respublikasi va Bojxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining texnik jihatdan tartibga solish ob'ekti hisoblanmaydi, shuningdek Ro'yxatga kiritilmagan.</p> <p>Tibbiyot buyumlariga qo'yiladigan talablarni tartibga solish Belarus Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi vakolatida ekanligiga e'tibor qaratamiz.</p>

Umumiy holda mahsulotlarni Bojxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining talablariga sertifikatlashtirish protsedurasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirish organiga ariza va texnik hujjatlarning berilishi (ariza beruvchi);
- ishlab chiqarish tekshiruvi (ariza beruvchi);
- texnik hujjatlar tahlili (sertifikatlashtirish organi);
- mahsulot identifikatsiyasi (sertifikatlashtirish organi);
- sinovlar uchun namuna tanlash, mahsulotni sinovdan o'tkazishni tashkillashtirish (sertifikatlashtirish organi);
- mahsulotni sinovdan o'tkazish (sinov laboratoriysi (markaz));
- ishlab chiqarish holatining tahlili (sertifikatlashtirish organi);
- texnik reglament talablariga muvofiqlik sertifikatini berish (sertifikatlashtirish organi);
- YeAS belgisi bilan mahsulotni markalash (ariza beruvchi).

Mahsulotlarni Bojxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining talablariga muvofiqlikni deklaratsiya qilish protsedurasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarning shakllanrilishi va tahlili (ariza beruvchi);
- ishlab chiqarish tekshiruvi (ariza beruvchi);
- mahsulot identifikatsiyasi (ariza beruvchi);
- sinovlar uchun namuna tanlash, mahsulotni sinovdan o'tkazishni tashkillashtirish (ariza beruvchi);
- mahsulotni sinovlardan o'tkazish (sinov laboratoriysi (markaz));
- muvofiqlik haqida deklaratsiya qabul qilish (ariza beruvchi);
- sertifikatlashtirish organiga muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berilishi (ariza beruvchi);
- ariza va muvofiqlik haqida deklaratsiya tahlili (sertifikatlashtirish organi);

- muvofiqlik haqida deklaratsiyani ro'yxatga olish (sertifikatlashtirish organi);
- YeAS belgisi bilan mahsulotni markalash (ariza beruvchi).

Mahsulotlarning Bojaxona ittifoqi (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiniki) texnik reglamentlarining talablariga muvofiqligini baholash bo'yicha ishlar akkreditlangan muvofiqlikni baholash organlari (shu jumladan, Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlar) yagona reyestriga kiritilgan sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlar) tomonidan amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan reyestr bilan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasining (www.eurasiancommission.org) saytida «Texnik jihatdan tartibga solish»/«Texnik jihatdan tartibga solish va akkreditatsiya departamenti»/ «Ma'lumotlar bazasi (reyestrlar)» bo'limida yoki Gosstandartning (www.gosstandart.gov.by) saytida «Reyestrlar» bo'limida tanishishingiz mumkin.

Bojaxona ittifoqining texnik reglamentlari bilan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasining (www.eurasiancommission.org) saytida «Texnik jihatdan tartibga solish»/«Texnik jihatdan tartibga solish va akkreditatsiya departamenti»/«Texnik reglamentlar» bo'limida yoki Gosstandartning (www.gosstandart.gov.by) saytida «Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi»/«BI (YeAES) qabul qilingan texnik reglamentlar» bo'limida tanishishingiz mumkin.